

МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИК

ANOR MEVASI HOSILINI KO'PAYTIRISH

Aralov Xudoyor Musaqulovich, dotsent
Qorjovova Xulkar Dilshod qizi, talaba
Jizzax politexnika instituti

Аннотация: В данной статье: Постановление Кабинета Министров о расширении гранатовых садов и упоминаются история, структурное строение, морфология, виды, сорта, лечебные свойства и способы размножения граната.

Annotation: In this article: The decision of the Cabinet of Ministers on the expansion of pomegranate orchards and the history, structural structure, morphology, types, varieties, medicinal properties and methods of reproduction of pomegranate are mentioned.

Kalit so'zlar: *Punicus, Punica garanatum, kraxmal, oqsil, yog', tanin, Achchiq dona, Disertniy, Qizil ulichshenniy, bachkiy, K. Linne, palgari, mikropropagasiya, in vitro.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Farg'ona viloyatida anor yetishtirishni ko'paytirish va sohani rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'irisida»gi 2018-yil 4-oktabrdagi 791-son qarorida Farg'ona viloyatida anor yetishtiruvchi xo'jaliklarni tashkil qilish va ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi xususiy sektor va-killariga ko'maklashish, ilmiy-ta'tqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy ishlar, innovatsion resurs tejankor texnologiyalar asosida anor ko'chatlari va maxsulotlarni kompleks rivojlantirish, sohani eksport salohiyatini oshirishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Anorzorlarni ko'kalamzorlashtirish, kengaytirish, olinayotgan hosilni ko'p va sifatli qilib yig'ib olish uchun bog'larda agroteknikasi va mehnatni to'g'ri tashkil etish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

Anor mevasi lotincha "Punicus" nomi bilan ham mashhur bo'lgan. O'rta asrlarda "Pomum granatum" nomi bilan ham atalgan ya'ni donagi ko'p olma. Uning xalqaro nomi «Punica garanatum» (L, 1753)-bu nomni fanga K. Linne tomonidan kiritilgan.

Anor – anordoshlar oilasiga mansub subtropik, ko'p yillik mevali o'simlik. Uning vatani Old Osiyo: Ozorboyjon, Eron, Afg'oniston hamda O'rta Osiyo mamlakatlari hisoblanadi. O'rta Osiyoda qariyb 2000 yildan buyon anor mevasi ekib kelinmoqda. O'zbekistonning- Denov, Kitob, Namangan va Quva tumanlarida anor mevasi yetishtiriladi. MDH mamlakatlari orasida anorzorlarning 25% dan ko'prog'i O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi. Xozirgi kunda mamlakatimizda anorning 19 ta navi yetishtirilmoqda, xududda 1000 gektar, aholi tomorqasida esa 3400 gektardan ortiq maydonlarda anor parvarishlanmoqda. Qo'shimcha o'tgan yilning o'zida 1200 gektardan ziyod maydonlarda anorzorlar barpo etildi. Janubiy hududlarda anor dengiz sathidan 1200m balandlikda, qariyb 700 m.m yog'ingarchilik bo'ladigan lalmikor yerlarda yetishtiriladi. Anorning ikkita – madaniy va yovvoyi turlari bor. Hozirgi madaniy anorlar yovvoyi turlaridan seleksiya yo'llari bilan yaratilgan. O'rta Osiyo hududida anorning Ulfi, Pushkin Gulosha, Oq dona (Tuyatish), Achchiq dona, Disertniy, Qozoqi anor, Qizil Uluchshenniy, Dashtobod navlari yetishtiriladi. Bu navlar orasida eng ko'p ekiladiganlari Achchiq dona, Disertniy, Qazake anor, Qizil uluchshenniy hisoblanadi. Anor kichikroq daraxt yoki buta shaklida o'sadi. Barglari mayda nashtarsimon, novdasi sertikan bo'ladi. Ko'plab ildiz bachkilari chiqaradi. Ikki jinsli gulli o'simlik. Gullarining rangining rangi och qizil tusda bo'lib diametri 8 sm. gacha boradi. Shoxlari uchida bitta, ikkita bazida esa beshtagacha gullari bo'ladi. Urug'chisi yaxshi rivojlangan,

ko'zachasimon guli meva tugadi. Anor chetdan changlanadi, mevasi yirik, dumaloq, po'stining rangi qizg'iz yoki oqish bo'ladi. Anor asosan qalamchalaridan ko'paytiriladi. Ko'paytirishning eng oddiy va arzon yo'li ildiz bachkilari va novdalaridan qalamcha ekib ko'chat tayyorlash. Anor ko'chati asosan 4 xil usul bilan ko'paytiriladi.

Birinchi usul- anor donidan, ammo o'sishi sekin, tanasi sertikan va mevasi unchalik katta bo'lmaydi.

Ikkinchi usul-daraxt tagidan va tanasidan o'sib chiqqan yovvoyi novdalaridan olib ko'paytiriladi. Bu usulda o'sish samaradorligi yuqori bo'ladi ammo hosil kam bo'ladi.

Uchunchi usul-daraxt shoxlaridan kesib olib ekiladi, bu sekin o'sadi lekin hosildorlik yaxshi bo'ladi.

To'rtinchi usul-anor daraxti tanasidan biri yerga ekib qo'yiladi. Bu usul "palgari" Farg'ona vodiysida esa "tizza" deyiladi. Bu usul samarali bo'lib yaxshi o'sadi va hosildorlik yuqori bo'ladi. Anor mevasini ko'paytirishni yana bir yangi usuli hujayradan ko'paytirishdir (mikropropagasiya). Bu usul Biotexnologik laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Anorni hujayrasidan in vitro sharoitida ko'paytirish ko'p sonli ko'chat olishda eng samarali usul bo'lib, qolaversa zararkunanda xasharotlar, kasalliklarga chidamli va alohida sifatga ega navlarni yaratish imkoniyatini beradi. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, hujayradan ko'paytirish ikkilamchi kurtak rivojini jadallashtirish imkonini beradi. An'anaviy seleksiya uslublaridan foydalanib, mevali daraxt navlarini takomillashtirish masalasi juda uzoq muddat talab qiluvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Shu sababli, in vitro sharoitida patogensiz ekish materialini ko'p miqdorda va qisqa muddatda hosil qilish biotexnologiyasi istiqbollari yuqori baholanadi.

Anor qalamchalarini kuzda va bahorda tayyorlanadi. Bahorda shira harakati boshlanmasdan oldin tayyorlanadi. Anor mevasining og'irligi o'rta hisobda 250-1000 gr gacha boradi. Anor mevasi tarkibida 14-21% qand, 0,3-9% limon kislotasi, 10% tanin, 3,4% oqsil 2-6% pektin, temir, kobolt, yod, S, A vitaminlari mavjud. Anor donalari tarkibida 35,02% suv, 1,54% kul, 6,85% yog', 12,64% kraxmal, 9,38% oqsil, 22,41% tola bor. Urug'lari tarkibida 6,6% suv, 20,8% yog', 20% kraxmal, 34% klechatka va 10% azot moddalari bor. Anor po'stlog'i tarkibida 28,38% oshlovchi modda bor.

Anor mevasi tarkibida oshlovchi modda ko'p bo'lganligi uchun to'qimachilik, teri oshlashda va kimyo sanoatida keng foydalaniladi. Anor mevasi ozuqa sifatida xom holda istimol, Sharbati olinib ichimlik sifatida istimol qilinadi. Gullari va mevasidan

bo'yoq sifatida, kasmetalogiyada ham foydalaniladi. Yovvoyi turidan limon kislotasi olinadi. Bazi turlari hushmanzarali o'simlik sifatida ekiladi. Anor mevasi tarkibida shifobaxsh moddalar ko'p bolganligi uchun Xalq tabobatida keng foydalanib kelinmoqda. Anor po'stlog'i qaynatmasi, gulining damlamasi, mevasi va uning shirasi istisqo, ich ketish, dizinteriya, sariq kasallik va qo'tir kabi kasalliklarni davolash va oldini olishda ishlatiladi. Tibbiyotimiz otasi bo'lmish Abu Ali Ibn Sino anor mevasidan milklarda qon oqqanda, meda kasalliklari, tutqanoq, astma kabi kasalliklarni davolash haqida Tib qonunlari asarida yozib o'tgan. Shuning uchun ham anorzorlarimiz keng miqyosda ko'paytirish chora tadbirlari ko'rilmogda. Hozirgi kunda anor

mevasini mamlakatimiz Xitoy, Koreyya, Yaponiya, Iordaniya, Myanma, Gana, Chernogoriya kabi davlatlarga eksport qilmoqda. Sitatistika agentligining malumotlariga qaraganda O'zbekiston 2022 yilda Xorijiy mamlakatlarga qiymati 19,8 mln \$ bo'lgan 21,6 ming tonna anor eksport qilgan, 2021 yilga nisbatan 2,2 ming tonna ga oshdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz munkinki o'lkamiz hududlarida anorzorlarni ko'paytirish va iqlimimizda yaxshi o'sadigan va ko'p hosil beradigan anorning mahalliy navlarini yaratish yaratishda samarali usullarini ishlab chiqishimiz kerak. Yetishtirilayotgan anorlarimizni qayta ishlash soxasini rivojlantirish va bu orqali bo'sh ish o'rinlarini tashkil qilishga erishamiz.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". PQ-4575-son Qarori. – Toshkent. 2020 yil 28 yanvar.
2. Ostanagulov T. E., Narziyeva S., G'ulomov B. X. "Mevachilik asoslari". S., 2011. 152-155 b
3. Qo'shiyev H. H., Ergasheva F. Sh. ANORCHILIK (Anor biologiyasi, anor yetishtirish agrotexnikasi, anorni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish) Oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichi 5410200-Anorchilik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. Guliston-2021.
4. Ajaikumar K.B., Asheef M., Babu B.H., Padikkala J. The initiation of gastric mucosal injury by Punica granatum L. (pomegranate) methanolic extract // J. Ethnopharmacol.-2005.-V.96.-P.171-176
5. Li N., Jamil A., Ali Shah S.W., Shah I., Ahmed G. Spasmogenic and spasmolytic activity of rind of Punica granatum Linn // BMC Complementary and Alternative Medicine.-2017.-V.17(97).-P.1-7
6. Бобоев И.А., Шарипов З.Ш., Абдуллаев А., Фардеева М.Б. Удельная поверхностная плотность листа Punica granatum L. и Diospyros lotus L. в разных условиях Таджикистана // Вестник Удмуртского университета (Биология. Науки о земле).- 2015.-Т.25.-Вып. 3.-С.141-143.

УЎТ: 631.52: 635.63

БОДРИНГНИНГ ИСТИҚБОЛИ “ЖИЛО” НАВИ

Борасулов Акмал Мирайимович, (PhD)

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Тошкент филиали

Борасулова Дилноза Дилмуроджон қизи

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада бодрингнинг очиқ ер майдонларида етиштириши учун мос “Жило” навининг тавсифи ва унинг яратилишидаги селекция босқичлари ёритилган. Бодрингнинг яратилган ушбу нави тундаги оналик гуллари сонининг кўплиги, мева сифатининг юқорилиги, юқори ҳосилдорлиги ва кладоспориоз (*Cladosporium cucumerinum* (Ccu), бодрингнинг оддий мозаика вируси (CMV), ун-шудринг (*Erysiphe cichoracearum*), сохта ун-шудринг (*Pseudoperonospora cubensis*) (Pc), бодрингнинг сариқ мозаика вирусига (ZYMV) юқори даражада бардошлилиги билан фарқланади.

Калит сўзлар: тизма, нав, оналик гул, техник пишиш, мева вазни, биологик пишиш, инсухт, якка танлов.

Аннотация. В данной статье приведено описание сорта огурца «Жило», пригодного для выращивания в открытом грунте, и этапы селекции при его создании. Этот сорт огурца создан благодаря большому количеству материнских цветков на кусте, высокому качеству плодов, высокой урожайности и кладоспориозу (*Cladosporium cucumerinum* (Ccu), вирусу обыкновенной мозаики огурца (CMV), мучнистой росе (*Erysiphe cichoracearum*), ложной мучнистая роса (*Pseudoperonospora cubensis*) (Pc), отличающаяся высокой устойчивостью к вирусу желтой мозаики огурца (ZYMV).

Ключевые слова: линия, сорт, женских цветков, техническое созревание, масса плода, биологическое созревание, инсухт, индивидуальный отбор.

Annotation. This article describes the variety of cucumber «Jilo», suitable for growing in open ground and the breeding stages during its creation. This variety of cucumber is created due to the large number of female flowers on the bush, high fruit quality, high yield and cladosporiosis (*Cladosporium cucumerinum* (Ccu), cucumber common mosaic virus (CMV), powdery mildew (*Erysiphe cichoracearum*), downy mildew (*Pseudoperonospora cubensis*) (Pc), which is highly resistant to cucumber yellow mosaic virus (ZYMV).

Key words: line, variety, female flower, technical maturation, fruit weight, biological maturation, inbreed, individual selection.

Кириш. «Ер юзида энг кенг тарқалган сабзавотлардан бири бодринг бўлиб, йилига 2,118 млн. гектар майдонга экилади. Ундан олинадиган ялпи ҳосил 71,366 млн. тоннани, ўртача

ҳосилдорлик эса 33,6 т/га ни ташкил этади. Дунёда энг кўп бодринг етиштирувчи давлатлар қаторига Хитой (54,363 млн. т.), Туркия (1,755 млн. т.), Эрон (1,570 млн. т.) каби давлатлар